

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOYMUROTOV SAMI MAMUROVICH

**O‘ZBEKISTON ARID MINTAQASI LANDSHAFTLARINING
BARQARORLIGINI BAHOLASH VA O‘ZGARISHLARINI
PROGNOZLASH**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Boymurotov Sami Mamurovich

О‘zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining barqarorligini baholash va
o‘zgarishlarini prognozlash 3

Баймуротов Сами Мамурович

Оценка устойчивости ландшафтов аридных зон Узбекистана и
прогнозирование изменений 23

Boymurotov Sami Mamurovich

Assessing the sustainability of landscapes in arid zones of Uzbekistan and
forecasting changes 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOYMUROTOV SAMI MAMUROVICH

**O‘ZBEKISTON ARID MINTAQASI LANDSHAFTLARINING
BARQARORLIGINI BAHOLASH VA O‘ZGARISHLARINI
PROGNOZLASH**

11.00.01 - Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSYERTATSIYA AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiyasi komissiyasida B2024.2.PhD/Gr309 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xodjimatov Alisher Nigmatovich geografiya fanlari nomzodi, professor
Rasmis opponentlar:	Urazbayev Abdukarim Kendirbayevich geografiya fanlari doktori. (DSc), professor Nilufar Toirovna Sabirova geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 18-aprel soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 00- raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ____-aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 3-apreldagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
g.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurat. Jahonda cho‘llanish muammosi global geoeologik muammo sifatida va buning oqibatida landshaftlarning o‘zgarishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda. Bu muammolarni oldini olish, ularga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish dasturining 15-maqsadida “Cho‘llashishga qarshi kurashish, ekologik vaziyatni yaxshilash, degradatsiyani oldini olish, bioxilma-xillikni saqlash hamda iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish”¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, cho‘llanish, yerlarning degradatsiyaga uchrashiga barham berishda arid mintaqa landshaftlarining barqarorlik xususiyatlarini aniqlash va baholash, landshaftlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni prognozlash, o‘zgarish tendensiyalarini bilish hamda mavjud geoeologik holatni optimallashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Dunyo bo‘yicha iqlim ko‘rsatkichiga binoan arid hududlar quruqlik yuzasining taxminan 1/3 qismini egallaydi. Global iqlim o‘zgarishi natijasida hozirda cho‘llanish jarayoni kuchaymoqda, uning natijasida tabiatdan foydalanishda biologik va landshaft xilma-xilligini saqlash hamda ularni prognozlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada arid mintaqa landshaftlarining barqarorligini baholash, antropogen omillar ta‘sirida o‘zgarish darajalarini aniqlash toifalari mezonlarini o‘rganish, iqtisodiyotda foydalanishda landshaft xilma-xilligini saqlash va geoeologik holatni optimallashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda arid mintaqa landshaftlaridan ilmiy asosda foydalanish maqsadida qator innovatsion manzilli dasturlar ishlab chiqish, iqlim o‘zgarishiga moslashish hamda resurslardan, ayniqsa yer-suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tadbirlar hayotga joriy etilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 68-maqsadida: “Yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun 26 200 ga ihota daraxtzorlarini barpo etish ... cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish”² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada arid mintaqa landshaftlarini degradatsiya va cho‘llanish jarayonlaridan muhofaza qilish hamda geoeologik monitoringni olib borishni innovatsion metodlar asosida takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023 yil 11 sentyabdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2021 yil 30 dekabrda PQ-76-son “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari foliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2022 yil 20 dekabrda

¹ Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года // Электронный доступ: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 sentabrda Farmoni.

“Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi” hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. “Yer haqidagi fanlar” va V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” mavzusidagi tadqiqotlar bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Arid mintaqa landshaftlari, xususan cho‘l geotizimlarining turli jihatlarini o‘rganishda xorij olimlaridan: E.Bernard, H.N.Houeroy, J.A.Mabbutt, H.Mensching, F.Ibrahim, A.Rapp, A.Sall, G.E.Dregne kabilarning hissasi bor. Bu borada MDH olimlari: B.A.Fedorovich (1954, 1963, 1983), G.A.Babaev (1963, 1973, 1977, 1983, 1986), P.Meygs (1955), M.P.Petrov (1964, 1966, 1973), S.V.Viktorov (1971, 1973), V.A.Kovda (1977), B.V.Vinogradov (1977), V.N.Vinogradov (1980), G.F.Radchenko (1983), G.K.Gasanov (1985), M.A.Mamedov (1986), N.T.Nechaeva (1991), N.G.Xarin (1991) va boshqalarning xizmatlarini alohida e‘tirof etmoq lozim.

Respublikamizda sohaga oid muammolar bo‘yicha olimlardan: I.Q.Nazarov (1975, 1992), P.Baratov (1980), S.A.Nishonov (1984), O.S.Nuriddinov (1992), V.A.Rafiqov (2016, 2017, 2022) kabi olimlar umumiy masalalar bo‘yicha; A.A.Abdulqosimov (1983, 1990), D.Yakubov (1991), Q.S.Yarashev (2018), M.E.Djuraev (2022)lar tog‘ oraliq‘i botiqlari bo‘yicha; E.A.Mamedov (1963, 1974), R.A.Yugay (1966), S.B.Abbosov (1995, 2007, 2019)lar Qizilqum cho‘li bo‘yicha; M.Umarov (1967), Yu.B.Raxmatov (1979), A.A.Rafiqov (1984, 1986), V.A.Popov (1990), U.Nurov (1990), A.K.O‘rozboev (2002), K.J.Allanazarov (2002), D.B.Xursanov (2019), A.B.Rasulov (2020), Q.Q.Tojiev (2021), Sh.I.Ibragimov (2023)lar delta arid geotizimlari bo‘yicha; O.Yu.Poslavskaya (1974) Ustyurt platosi bo‘yicha; A.M.Rasulov (1976), I.A.Xasanov (1981), M.G.Nazarov (2020)lar Qarshi cho‘li bo‘yicha; A.A.Skvortsov, Yu.A.Skvortsov (1947), K.M.Boymirzaev (1995, 2020), A.N.Xodjimatov (1996, 2016), O.Sh.Ro‘ziqulova (2008), A.Raxmatullaev (2017), I.K.Mirzaxmedov (2021)lar arid mintaqa vohalar landshaftlari bo‘yicha; Sh.S.Zokirov, R.A.Ibragimova (2015) Orol tabiiy geografik okrugi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar. Biroq, mazkur tadqiqotlar hududiy jihatdan alohida tabiiy-geografik birliklar ko‘lamida amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot ishda esa ularning barchasi yaxlit obyekt sifatida qaralgan hamda arid mintaqa landshaftlarining barqarorligi baholangan. Faqatgina geografiya fanlari doktori, professor V.A.Rafiqov (2022)ning “Научно-методические основы географической оценки и прогнозирования аридных геосистем Узбекистана” nomli asaridagina muammoning ilmiy-metodik jihatlarini yetarli darajada yoritilgan. Shu bois tadqiqotimizda ana shu mukammal manbadan arid mintaqa landshaftlarining barqarorligini baholash hamda landshaftlarning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlashda keng foydalanishga jazm etdik. Bundan tashqari tadqiqotimizda mintaqadagi vohalar landshaftlarini o‘rganishga ham jiddiy e‘tibor qaratdik. Shuningdek, mintaqa voha tabiiy komponentlarining prognozli xossalari

aniqlangan. Arid mintaqa landshaftlaridagi o'zgarishlar prognozlangan, o'zgarish tendensiyalari ochiqdangan va holat bo'yicha geoeologik optimallashtirishning tabiiy geografik asoslari tavsiya etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Janubiy O'zbekiston tabiatidan foydalanishning geografik-ekologik jihatlari" mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining barqarorligini baholash, landshaftlardagi o'zgarishlarni prognozlash hamda ulardagi o'zgarish tendensiyalarini aniqlash bilan birga geoeologik optimallashtirishning tabiiy-geografik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonning arid mintaqasi landshaftlarining shakllanish qonuniyatlari o'rganish va o'ziga xos tabiiy-geografik sharoitini tavsiflash;

arid mintaqa landshaftlarining barqarorligini aniqlash va baholash;

arid mintaqa tabiiy komponentlarining prognozli xossalarini yoritish, landshaft o'zgarishlarini 2030 yilgacha prognozlash hamda prognoz kartasini tuzish;

arid mintaqa landshaftlarining o'zgarish tendensiyalarini aniqlash va geoeologik holatini optimallashtirishning tabiiy-geografik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti. O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining g'arbiy – yaxlit tekislik qismi olingan.

Tadqiqotning predmeti. O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining barqarorligi, ularni baholash, o'zgarishlarni prognozlash va geoeologik holatni optimallashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kartografik, paleogeografik, dala tadqiqotlari, landshaft-geokimyoy, suv-tuz muvozanati (balans), geografik axborot tizimi (GAT), geografik umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining antropogen ta'sirga barqarorligi uchun ishlab chiqilgan "barqaror", "nisbatan barqaror", "barqarorligi kam", "barqaror emas" o'zgarish darajalari bo'yicha toifalanib, 1:500 000 masshtabdagi kartasi yaratilgan va arid mintaqa geotizimlarining o'zgarish darajasini belgilovchi me'zonlar ishlab chiqilgan;

arid mintaqa landshaftlaridagi o'zgarishlar prognozlangan hamda Qoraqalpoq va Buxoro-Qorako'l vohalarining 1:200 000 masshtabli 2030 yilga prognoz kartasi tuzilgan;

O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining antropogen transformatsiyalanishiga olib kelayotgan turli omillar ochiqdangan va arid mintaqa landshaftlarining o'zgarish tendensiyalari aniqlangan;

O'zbekiston arid mintaqasi landshaft xilma-xilligini saqlash va arid mintaqadagi jiddiy geoeologik holatni optimallashtirish bo'yicha tabiiy-geografik asoslar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining vujudga kelish qonuniyatlari aniqlangan va landshaftlarning barqarorligi baholangan;

arid mintaqa vohalari tabiiy komponentlarining prognozli xossalari o‘rganilgan, landshaft o‘zgarishlarining 2030 yilgacha prognozlashtirilgan hamda prognoz kartasi tuzilgan;

arid mintaqa landshaftlarining antropogen o‘zgarish tendensiyalari aniqlangan va mavjud geoekologik holatni optimallashtirishning tabiiy-geografik asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlaridan, shuningdek, arid mintaqada olib borilgan dala tadqiqotlari asosida bajarilganligi hamda tadqiqot natijasida yaratilgan kartalar va nazariy ishlanmalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar, kartografik va boshqa birlamchi materiallar, arid mintaqa landshaftlari barqarorligini baholash, prognozlash, o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash metodikasini yangi usullar yordamida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish, landshaft barqarorligini baholash, vohalar landshaftlarini meliorativ tadbirlarini qo‘llanilmagan sharoyitda 2030 yilgacha prognozlash va mintaqa landshaft imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan takliflar; arid mintaqa landshaftlaridagi nomaqbul antropogen o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash va ularning atrof-muhitga bo‘ladigan salbiy ta’sirini optimallashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning arid mintaqasi landshaftlari barqarorligini baholash va o‘zgarishlarni prognozlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston arid mintaqasining shakllanish qonuniyatlari, tabiiy-geografik sharoiti, landshaft barqarorligi va uni baholash, prognozlash, mintaqa geoekologik holatini optimallashtirishga oid ma’lumot hamda xulosalar 70111001-Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (Geografiya) magistratura mutaxassisligi uchun “Arid hududlar geografiyasi” darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 30-may, 10/4.1 sonli qarori). Natijada, magistratura hamda bakalavriat talabalarining geografiya o‘qitish metodikasi sohasida bilimlarini boyitish va mustahkamlash imkonini bergan;

O‘zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining barqarorligi bo‘yicha toifalangan va uni belgilovchi me’zonlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim

o'zgarishi vazirligining 2024 yil 16-iyuldagi №01-02/18-12-2349 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlari hududida loyihalananayotgan infratuzilmalarning estetik ahamiyati, landshaft-arxitektura tamoyillari va barqarorligini hisobga olib joylashtirishda ularni atrof-muhitga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida nazoratni amalga oshirishga xizmat qiladi;

Arid mintaqa tabiiy komponentlarining prognozli xossalari aniqlangan, landshaftlardagi o'zgarishlar prognozlangan hamda Qoraqalpoq va Buxoro-Qorako'l vohalarining 1:200 000 masshtabli 2030 yilga prognozlash kartasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024 yil 16-iyuldagi №01-02/18-12-2349 sonli ma'lumotnomasi). Buning natijasida, arid mintaqa landshaftlarida sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan o'zgarishlar hamda Qoraqalpoq, Buxoro-Qorako'l vohalari agrogeotizimlarida meliorativ tadbirlardan samarali foydalanish va shu o'rinda "O'zbekiston-2030" strategiyasining 66-maqsadda ko'zda tutilgan vazifalarni rivojlantirishga xizmat qiladi;

O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining antropogen transformatsiyalanishiga olib kelayotgan sabablar ochiqdigan va mazkur mintaqa landshaftlarining o'zgarish tendensiyalari aniqlangan bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024 yil 16-iyuldagi №01-02/18-12-2349 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, arid mintaqa landshaftlarining o'zgarish tendensiyalari, asosan: yer yuzasining eol parchalanishi, eol va eroziyal parchalanish, antropogen cho'llanish, tuz to'planishi va tarqalishi, texnogen buzilishlar, sug'oriladigan yerlarning yo'qotilishi va ifloslanishi, daryo suvlarining kamayishi hamda ifloslanishi, atmosferaning ifloslanishi kabi salbiy o'zgarishlarini oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi;

O'zbekiston arid mintaqasi landshaft xilma-xilligini saqlash va arid mintaqa geoekologik holatini optimallashtirishning tabiiy-geografik asoslari bo'yicha chora-tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024 yil 16-iyuldagi №01-02/18-12-2349 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarida biologik xilma-xillikni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy maqola e'lon qilingan. Shundan, 1 ta monografiya, 7 ta ilmiy maqola, shu jumladan 4 tasi OAK ro'yxatidagi nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda, 3 tasi respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarblik darajasi va zarurati asoslangan, ilmiy ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Arid mintaqa landshaftlarini o‘rganishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida aridlilik va arid mintaqalarni aniqlashdagi mavjud fikrlar tahlili hamda arid mintaqalarni tadqiq qilish metodologiyasi va metodlari, shuningdek, O‘zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining shakllanishi va o‘ziga xos tabiiy geografik sharoiti ochib berilgan.

Geografik adabiyotlarda hududning qurg‘oqchil va cho‘l tusiga xosligini anglatuvchi “**aridlilik**” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Aridlilik iqlimga xos jarayon bo‘lsada, u bilan bir qatorda yana “arid iqlim”, “arid relyef”, “arid tuproqlar”, “arid landshaftlar” singari tushunchalar ham qo‘llanilayotganini uchratish mumkin. **Aridlilik** (aridnost) – (lot. “*aridus*” – quruq; ingl. “*aridity*”) – organizmlarning hayoti uchun namlik yetishmovchiligini keltirib chiqaruvchi qurg‘oqchil iqlim (V.Trofimova, 2002, 19-b.).

Arid iqlim – yil davomidagi bug‘lanish yog‘adigan atmosfera yog‘inlari miqdoridan ko‘p marta (10 barobar va undan ham ko‘p) ortiq bo‘lgan quruq iqlim; osmonning yorqinligi, kondensatsiya darajasining yuqoriligi, bulutlarning paydo bo‘lish imkoniyatlarining cheklanganligi, haroratdagi sutkalik tebranishlarining kattaligi bilan xarakterlanadi.

Arid mintaqa – 1) quruqlikdagi issiq iqlimli qurg‘oqchil hudud (cho‘l va chalacho‘l, quruq dasht)lar, 2) okean yuzasidagi bug‘lanishning yog‘inlar miqdoridan ortiq bo‘lgan iqlim mintaqasi. **Arid hududlar** – tuproq va o‘simlik qoplaminig xarakteri bilan belgilanadigan qurg‘oqchil iqlimli maydonlardir. Arid hududlar ichki suvlar, yog‘inlarga kambag‘al bo‘ladi. Arid hududlar uchun sug‘orma dehqonchilik xos.

Arid landshaftlar N.Milkov (1970) fikricha – quruq, odatda juda issiq iqlim sharoitida shakllanuvchi landshaftlar hisoblanadi. Oddiy (tipik) arid landshaftlar – cho‘llar va chalacho‘llardir (27-b.). I.P.Gerasimov (1980) arid hududlarga (keng ma‘noda) nafaqat cho‘l va chalacho‘llarni, shuningdek dasht va o‘rmon dashtlarni ham kiritadi (168-b.). **Arid landshaftlar** – cho‘l va chalacho‘llarning arid iqlimli sharoitida shakllanadi (N.Agadjanyan, 1997, 41-b.).

Materialistik dialektika tabiiy-geografik tadqiqotlarning ham asosi hisoblanib, u ayniqsa tabiiy geografiya, landshaftshunoslik, geoekologik va tabiiy geografik rayonlashtirishning nazariy asosini belgilaydi. Landshaftlarning aniq (real) – asl (obyektiv) mavjudligi, tabiiy majmualarning chegarasi va hududiy tafovutlari dialektikaning qonuniyatiga bo‘ysinadi.

L.S.Berg landshaftlarni tabiiy chegaralar bilan bo‘linishini qayd etgan. Bu bilan u landshaft chegaralari tabiatning o‘zida asl mavjud va uni o‘zboshimchalik yoki sub’ektiv tarzda amalga oshirish mumkin emasligini ta’kidlagan (A.Isachenko, 1991, 133-b.).

Obyektni o‘rganishda tizimdagi xossalar, qismlar va yaxlitlik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muhim metodologik ahamiyatga egadir. Yaxlitlik va uning qismlari bir-birlarisiz mavjud bo‘la olmaydi: yaxlit tizimning shakllanishi boshqa bir qancha tizim (qism)larning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq. Bir vaqtning o‘zida yaxlitning o‘zi qismlar bilan o‘zaro faol ta’sirda bo‘ladi, o‘z tabiatiga ko‘ra ularni o‘zgartiradi, muvofiqlashtiradi, birlashtiradi (V.Afanasev, 1980, 89-b.).

Tabiat turli hududlardagi turlicha tabiiy sharoitlar majmuasidan iborat bo‘lsada, uning bir butun - yaxlit hosila ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. V.S.Jekulin (1989): O‘zaro aloqadorlik va o‘zaro bog‘liqlikni geografiya fanining asosiy metodologik tamoyili deb hisoblaydi (105-b.).

Arid landshaftlarni tadqiq qilishda ayniqsa kartografik, paleogeografik, dala tadqiqotlari, landshaft-geokimyo, suv-tuz muvozanati, GAT va geografik umumlashtirish metodlaridan keng foydalanish kutilgan samaralarni berishi aniq.

S.A.Nishonov (1984)ning ta’kidlashicha, iqlim va landshaftning aridligini faqatgina atmosfera yog‘inlarining o‘zi bilan aniqlab bo‘lmaydi. Shuningdek, bunda bug‘lanish miqdori, tuproq turi va relyef kabi omillar ham muhim hisoblanadi (5-b.). Agar arid hududlar namlik koeffitsenti (NK) bo‘yicha ajratiladigan bo‘lsa, janubdagi ko‘plab tog‘ tizimlari, xususan Tyanshanning baland qismlari va g‘arbiy tarmoqlaridagi past tog‘lar ham arid mintaqalarga kiritilishi lozim.

Biz ham A.A.Rafiqov (1988) va V.A.Rafiqov (2016)lar ta’kidlaganlaridek: “... arid hududlar deyilganda, paydo bo‘lishi, faoliyat ko‘rsatishi, rivojlanishi va hududiy izolyatsiyalanishi uchun iqlim, eng avvalo qurg‘oqchilik yetakchi turlarini tushunamiz” (7-b.; 11-b.).

O‘zbekiston arid mintaqasining tekislik qismidagi sharqiy chegarasi deyarli shimoliy va janubiy subtropik cho‘llar kichik mintaqalarini ajratib turuvchi chegaraga aynan mos keladi. Shuningdek, mazkur hududlarda yillik yog‘in miqdorining 100 – 150 mm, namlanish koeffitsientining 0,7 – 0,1 (V.Mezensev (1973) bo‘yicha); yog‘in miqdori 100 – 200 mm/yil, NK – 0,03 – 0,20 (I.Zorin, N.S.Orlovskiy (1984) bo‘yicha) bo‘lishi hududlarni arid mintaqaga taalluqli ekanligidan dalolatdir. Tadqiqotimizda biz asosan mo‘tadil mintaqa cho‘llari hamda shimoliy subtropik cho‘llari kichik mintaqalarini o‘rganishga qaratishni lozim topdik. Shunda o‘z holatda arid mintaqaning sharqiy chegarasi R.K.Qo‘ziev, V.Ye.Sektimenko, A.J.Ismoilovlar belgilagan tuproq-rayonlashtirish chegarasiga to‘g‘ri keladi (O‘zbekiston Milliy atlas, 2020, 184-b.).

O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonda arid mintaqa landshaftlarining keng areallarda rivojlanganligi avvalo uning o‘rta kengliklar – quruq subtropik va mo‘tadil mintaqalarda joylashganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, okean va dengizlar bilan o‘ralganligi uzoqda, juda keng oqimsiz Orol-Kaspiy havzasida joylashganligi va janubdan baland tog‘lar bilan o‘ralganligi ham sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston tekisliklarining davriy namlanishiga qaramay to‘rtlamchi davrda bu yerda asosan arid landshaftlar saqlangan. Hozirgi arid landshaftlarning vujudga kelishiga sabab bo‘luvchi iqlimiy omil va dalillarni yuqorida batafsil yoritishga harakat qildik.

Dissertatsiyaning “**Arid mintaqa landshaftlarining barqarorligini baholash va o‘zgarishlarni prognozlash**” deb nomlangan ikkinchi bobida landshaftlarning barqarorligi va arid mintaqa landshaftlari barqarorligini baholash, undagi o‘zgarishlarini prognozlashning ilmiy tamoyillari va metodlari hamda arid mintaqa landshaftlari o‘zgarishlarini prognozlash ishlari yoritildi.

V.S.Preobrajenskiy (1986)ning yozishicha: “barqarorlik” atamasi geografiyaga matematika yoki fizika fanlaridan emas, balki texnik fanlardan kirib kelgan. Landshaftlarning barqarorligi muammosi bo‘yicha e‘lon qilingan ishlarning soni hozirda anchagina ko‘pchilikni tashkil etsada, uning nazariy-metodik jihatlari batafsil ishlab chiqilmagan.

Landshaftlarning barqarorligi deyilganda, ko‘pincha ularning turli xildagi tashqi ta’sirlarga bardoshlilik va chidamlilik xususiyatlarini anglatadi. “Охрана ландшафтов” (1982) nomli izohli lug‘atda: “landshaftlarning o‘zgarib turuvchi muhitda o‘zining maxsus faoliyati va tuzilmasini saqlay olish xususiyati uning barqarorligidir” (219-b.) mazmumda yozilgan.


Yana boshqa manbalarda barqarorlik tushunchasiga tabiiy tizimlarning tashqi ta’sirlarga qarshilik ko‘rsata olishi tufayli buzilgan bo‘lsada va uning qayta tiklanish qobiliyati ham kirishi ta’kidlanadi. Shuningdek Yu.A.Vedenin, K.N.Dyakonov (1973), V.N.Kulikov (1976), A.A.Krauklis (1979), A.G.Isachenko (1979, 1980), S.A.Rakita (1980), V.S.Preobrajenskiy (1983), A.I.Stashenko (1983), Z.V.Dashkevich (1984), V.V.Ryumin (1986), T.V.Zvonkova (1987), T.D.Aleksandrova va b. (1989), D.A.Armand (1989) kabi olimlar bergan ta’riflar ham mazmunan shunga yaqin.

Landshaft qanchalik barqaror bo‘lsa, hudud tabiiy muhitining o‘zgarishi shunchalar ahamiyatsiz (kichik) bo‘ladi yoki aksincha. Shuning uchun tadqiqot hududi bo‘yicha landshaftlarning transformatsiyalanish prognozini o‘rganishda tabiiy majmualarning barqarorlik me‘zonlarini aniq belgilash lozim (V.Rafiqov (2022) bo‘yicha, o‘zgartirishlar bilan). Bunda biz landshaftlar barqarorligining: barqaror, nisbatan barqaror, barqarorligi kam (kam barqaror), barqaror emas (beqaror) toifalaridan foydalandik (1-rasm).

Barqaror landshaftlar faqat paleozoy jinslari bilan qoplangan Qizilqumdagi past tog‘lari va Qorabovur qirlari kabilar uchun xosdir. Bu yerdagi past tog‘lar va adir landshaftlari tuzilmali relyef (paleozoy qumlari, slanes, konglomerat, ohak bilan qoplangan), tuproq turlari (kuchli shag‘allashgan sur-qo‘ng‘ir), o‘simlik qoplami (siyrak shuvoqli) va xo‘jalik faoliyati (mo‘tadil mol boqish, foydali qazilmalarni qazib olish va b.) xarakteriga bog‘liq holda ancha barqaror hisoblanadi. Landshaftlarning o‘z-o‘zini tartibga solishi litogen omillar sababli juda sekinlik bilan davom etadi. Shuvoqlilar me‘yorda mol boqilishidan o‘zini-o‘zi yaxshi tiklay oldi.

Shu asosda aytish joizki, agar sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish uchun yaroqli bo‘lgan adir landshaftlarini hisobga olmaganda kelajakda bu tabiiy

majmualar transformatsiyaga kam uchrashi mumkin. Eroziyaga qarshi sodda elementar tadbirlarni qo'llash tufayli yaqin 10-15 yil mobaynida adir geotizimlarining tuzilmalari o'zgarishsiz bo'lishi kuzatiladi.



1-rasm. O'zbekiston arid mintaqasi landshaftlarining barqarorlik toifalari

Nisbatan barqaror landshaftlar Ustyurt platosining qatlamli tekisliklari, Oqchadaryoning delta tekisliklari Qizilqumning prolyuvial shleyflari, alohida qoldiq balandliklar (Beltog', Kuskanatog', Mo'ynoq yarim oroli va b.)ga xos. Mazkur landshaftlarning xususiyatlari litologik – geomorfologik tuzilishining o'ziga xosligi, qatlamli va delta tekisliklari, balandliklarning grunt-zaminining plastiklik (zich loyqa va loy) bilan birga yarim tosh qoyali jinlardan tashkil topgan. Aynan shu xususiyat landshaftlarni insonlarning xo'jalik faoliyati texnogen omillariga ta'sirining nisbatan barqarorligini belgilaydi. Shuning uchun qator tabiiy jarayon va hodisalarning rivojlanishi unchalik keng tarqalmaydi.

Barqarorligi kam landshaftlar Amudaryo va Janadaryoning quyi qismlari, Oqchadaryo deltasining chekka qismlari, shuningdek Qizilqum cho'lining qumliklari orasidagi sho'rxok pastqamliklar uchun xarakterlidir. Barqarorligi kam landshaftlar ularning komponentlari o'rtasidagi juda kuchli o'zaro aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik bilan belgilanadi. XX asrning 60-yillari boshidan Amudaryo deltasining suv bosishi va Orol dengizi suv sathining pasayishi natijasida tabiiy muhit tezlik bilan transformatsiyalanishiga sabab bo'ldi. Grunt suvlari sathining pasayishi tuproqda tuz to'planishi, biogeotsenzolarning rivojlanishini gidromorf tartibdan elyuvial qatorlar yo'nalishiga o'zgarishiga hissa qo'shdi. Bu hududlarda tabiat komponentlarining deyarli barchasi transformatsiyaga uchragan (A.Rafiqov, 1984, 106-b.). Shunday qilib, oldingi intrazonal delta gidromorf landshaftlari

rivojlanishning eiyuvial bosqichiga o‘tdiki, bu Amudaryoning dengizbo‘yi deltasi landshaftlarining kam barqarorligini ko‘rsatadi.

Barqaror emas (beqaror) landshaftlar Qizilqum cho‘lining qumliklari va Orol dengizining qurigan qismlari uchun xosdir. O‘ziga xos litogen omillar qumli landshaftlarning turli darajada mustahkamligiga sabab bo‘ladi. Orol dengizi qurishidan hosil bo‘lgan sho‘rxoklar tabiiy majmualarning antropogen omillar ta’siriga beqarorligiga asos bo‘ladi yoki landshaftlarning barqarorligi juda o‘rinsiz hisoblanadi. Ular arzimagan darajadagi ta’sir tufayli (deylik, o‘simlik qoplaminig yo‘qotilishi) eol relyef (qumlarning uchirilishi va uning qumli tekislikning boshqa maydonlariga akkumulyatsiyanishidan tortib, haqiqiy barxanlar va tik yonbag‘irli botiqlarning shakllanishigacha) jadallik bilan o‘zgarishga uchraydi. Aynan qumli landshaftlarning mo‘rtligidan ko‘chma qumlar keng maydonlarni egallamoqda, ayniqsa bu jarayon aholi manzillarining atroflari va turli muxandislik obyektlarining ta’siri doirasidagi hududlarda jadal bormoqda.

Prognoz – bu kelajakni aniqlash, **prognoz** – bu obyektning rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy gipoteza va hakozi. **Prognozlashtirish** – bu tadqiqot obyektining mumkin bo‘lgan holati to‘g‘risida ma’lumotlar olish jarayonidir. **Prognoz-prognozlashtirish tadqiqotlarining natijasidir.** “Haqiqiy geografik prognoz – Sh.S.Zokirov (1998) ta’kidlaganidek – geografik tizimlarining kelajagi haqida tassavvur berishi kerak” (55-b.).

Prognozlashtirishda ko‘pincha quyidagi: sutkalik – 1 sutkagacha; tezkor – 1 oygacha; qisqa muddatli – 1 oydan 1 yilgacha; o‘rtacha muddatli – 1 yildan 5 yilgacha; uzoq muddatli – 5 yildan 15 yilgacha; juda uzoq muddatli – 15 yildan ziyod bo‘lgan vaqt birliklari qo‘llaniladi.

A.G.Yemelyanov (1982) va boshqa qator tadqiqotchilar tabiiy majmualarni o‘zgarishini prognozlashtirishning nazariy va metodologik jihatlarini o‘rganib, quyidagi: tarixiy yoki dinamik yondashuv, majmuali, makon – vaqtning prognozidagi birligi, tabiiy-muhitning tabaqalashuvini hisobga olish, prognozning miqdoriy hamda sifatiy tavsifi kabi bir necha tamoyil-yondashuvlarni taklif etganlar.

T.V.Zvonkova (1987)ning yozishicha hozirda prognozlashning 150 dan ortiq metodlari mavjud bo‘lib, bu son yana o‘shishda davom etmoqda. Shulardan 5-10 tasigina ishchi prognozlash metodlari hisoblanadi, ya’ni amaliyotda keng qo‘llaniladi (31-b.).

Arid mintaqa landshaftlari va voha agrogeotizimlaridagi yerlarning tabiiy – meliorativ sharoitidagi o‘zgarishlarni prognozlashdagi asosiy qiyinchiliklardan biri, ma’lum muddat – vaqt bilan bog‘liq. Lekin ma’lum muddat – yil masalan, 2030 yoki 2050 yilga ham prognoz berish mumkin. Shu bois tadqiqotimizda biz 2030 yilga prognoz berishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Landshaftlarning o‘zgarishlarini prognozlashtirishdagi yana bir nozik masala – bu prognozning ko‘p variantlilikidir. Chunki tabiiy muhitning murakkabligi bois, uning istiqboldagi o‘zgarishlarini zudlik bilan aniqlash ham ancha mushkul. Landshaftlarning mavjud tuzilmali – dinamik holati vaqt mobaynida o‘zgarishi tabiiy hol, shuning uchun prognozlashtirishda bir necha holatlarni ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Shu tufayli geografik prognozlashtirish ko‘p variantlilikidir.

bilan xarakterlanadi. Ularning tanlashda T.V.Zvonkava (1987) ta'kidlab o'tgan quydagi mezonlarga asoslanib kerak natijalarni berishi mumkin: prognozning ishonchliligi, texnik-iqtisodiy omil va tizimlilik (71-b.).

Yuqoridagildardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizda arid mintaqa landshaftlarini kelajakdagi o'zgarishlarini prognozlashda hududda tabiatdan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni yetarli darajada qo'llanilmasa (vohalarda meliorativ tadbirlarni) qanday o'zgarishlar ro'y berishiga qaratdik. Aynan mana shu variant tabiat majmualarining kelajakdagi (2030 yilgacha) o'zgarishlarini tavsiflovchi eng og'ir vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun to'la ma'lumot berishi mumkin.

Arid mintaqa landshaftlarini prognozlashda global iqlim o'zgarishlarining O'zbekiston uchun iqlimiy ssenariylari ma'lumotlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. O'zbekiston hududi uchun iqlim o'zgarishiga asos qilib SO₂ emissiyasining yiliga 1 % ga ko'payishi olingan, bu holatda 2030 yilga kelib, o'rtacha yillik harorat 0,8 – 3,4 °C ga oshishi mumkin (nisbiy me'yor sifatida 1961-1990 yillar olingan).


Arid mintaqa (Ustyurt platosi, Orolqum, Qizilqum, Qarshi cho'li)da yog'in miqdorining barcha ssenariylar bo'yicha 105-125 % ortishi bu sharoitda katta ko'rsatgichdir. Oqibatda Qizilqum va Ustyurtda efemerlar vegetatsiyasi ancha uzoqroq cho'ziladi, zichligi va biomassasi ortadi. Bu esa deflyatsiya jarayonining vujudga kelishining kamayishiga ijobiy ta'sirda bo'ladi. Harakatdagi qumlarning tabiiy mustahkamlanishini kuchaytiradi, yaylovlarning biologik mahsuldorligini orttiradi.

Arid iqlim sharoitida yog'in miqdorining ortishi tog', qir, balandlik, chink, botiqlik yonbag'irlarida tuproq yuvilishi va chuqurlama eroziyaning faollashuviga ta'sir etadi. Qizilqumdagi tog' yonbag'irlari prolyuvial shleyflar, qoldiq balandlik yonbag'irlarida chuqurlama eroziya, ba'zi joylarda jar eroziyasi jonlanadi. Ustyurt platosida karst hodisasi, pastqamliklarda taqirlarning vujudga kelishi uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi. Qorabovur qiri, Asakaovdan, Borsakelmas botig'lari yonbag'irlari, chinklar eroziyaga uchraydi, tekisliklarda suffoziya avj oladi. Orol dengizining qurigan tubida tabiiy sho'rlanish, qiyaliklarda eroziya jadallashadi.

Voha agrogeotizmlarining o'zgarishlarini prognozlashda avvalo vohalardagi sug'oriladigan yerlarning hozirgi tabiiy – meliorativ holati va yer-suv resurslaridan foydalanish xususiyatini e'tiborga olish kerak.

Qoraqalpoq vohasida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yomonlashuvining yana bir ahamiyatsiz bo'lmagan muhim omili Orolqumdan keladigan tuz va tuzli changlarning voha maydonlariga akkumulyasiyasidir.

Qoraqalpoq vohasida Amudaryoning asosiy o'zani va uning tarmoqlaridan 1 dan 4-5 km gacha bo'ylab joylashgan tekisliklar (7-raqamli THM) o'zan hamda o'zanbo'yi fatsiyasi hisobiga tabiiy drenajlangan hisoblanishi aniqlangan (2-rasm). O'zandan uzoqlashgan sari drenajlanganlik yomonlashadi, o'zanlararo pastqamliklarda esa yerlar amalda oqimsizdir. Shu bois o'zan va o'zanbo'yi fatsiyalar rivojlangan doirada umuman tuproqda kuchli tuz to'planishini kutmasa bo'ladi.



2-рasm. Qoraqalpoq vohasi tabiiy majmualarida meliorativ tadbirlarni yetarlicha qo‘llanmagan sharoitdagi o‘zgarishlarining 2030 yilgacha prognozi.


Miqyosi bo‘yicha eng kuchli o‘zgarish, keskin mayin jinsli yotqiziqlar hukumronlik qiladigan, relyef esa mukammal darajada tekis shimol, shimoli-g‘arb va shimoli-sharqqa qisman nishab bo‘lgan delta tekisligining eng chekka qismlarida kuzatiladi (№4 raqamdagi THM). Bu hududlarda kuchsiz va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlarning salmogi katta, kollektor zovur tizimi (KZT) maydonga xos uzunligi 40-42 m/ga; Qoraqolpag‘istonda sug‘oriladigan yerlarning 1/4 qismi hanuz drenaj tarmoqlari bilan ta‘minlanmagan, sug‘oriladigan yerlarning aynan shu qismlari jadal tuz to‘planish obyektlari hisoblanadi.

Buxoro – Qorako‘l vohasi tabiiy muhitining o‘zgarishi Qoraqalpoq vohasidan agrogeotizimlarining tuzilmaviy-dinamik holati bo‘yicha farq qiladi, qaysiki mos tadbirlarning qo‘llanmasligi sharoitida cho‘llanish omillari bilan kurashish biroz boshqacharoq tarzda ro‘y beradi. Gap shundaki Zarafshon deltasi gruntining tabiiy drenajlanganligi turli qismlarda turlichadir. Bu xususiyat agrogeotizimlar

holatining kelajagini va ularning u yoki bu tendensiyada rivojlanishga moyilligini belgilaydi.

Buxoro deltasi tekisligining yuqori qismi va I qayir usti terrasalarida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda me'yordan oshmasa agrogeotizimlarning tuzilmasida 2030 yilga qadar jiddi namaqbul o'zgarishlar sodir bo'lmaydi (3-rasm). Bu hududning jadal drenajlanganligi bilan bog'liq, grunt suvlarining yer osti oqimini tezlatishga ehtiyoj tug'ilmaydi.

